

HAZRATI BASHIR ZIYORATGOHINING BUGUNGI KUNDAGI TARIXIY VA MADANIY AHAMIYATI

Sobirov Firdavs Anvar o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Tarix mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan Hazrati Bashir ziyoratgohining tarixiy ildizlari, uning me'moriy va madaniy xususiyatlari, diniy-ma'naviy hayotdagi o'rni hamda bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada ziyoratgohning turizm salohiyati, ilmiy merosi va uning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida fikr yuritilgan.

Annotation: This article analyzes the historical roots of the Hazrati Bashir pilgrimage site located in Kitob district of Qashqadaryo region, its architectural and cultural features, its role in religious and spiritual life, and its importance today. The article discusses the tourism potential of the site, its scientific heritage, and its position in modern social life.

Аннотация: В данной статье проанализированы исторические корни святого места Хазрати Башир, расположенного в Кашкадарьинской области, его архитектурные и культурные особенности, роль в религиозной и духовной жизни, а также современное значение. В статье рассматривается туристический потенциал объекта, его научное наследие и место в современной социальной жизни.

Kalit so'zlar: Hazrati Bashir, ziyoratgoh, tarixiy meros, diniy qadriyat, turizm, so'fiylik.

Keywords: Hazrati Bashir, pilgrimage site, historical heritage, religious

values, tourism, Sufism.

Ключевые слова: Хазрати Башир, место паломничества, историческое наследие, религиозные ценности, туризм, суфизм.

Kirish.

O'zbekiston tarixiy yodgorliklarga boy o'lkalardan biri bo'lib, bu yodgorliklar xalqimizning tarixiy xotirasi va ma'naviy merosining ajralmas qismini tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan Hazrati Bashir ziyoratgohi ana shunday muqaddas maskanlardan biridir. Ushbu maqolada ushbu ziyoratgohning tarixiy kelib chiqishi, diniy-ma'naviy ahamiyati, arxitektura yodgorligi sifatidagi qiyofasi hamda zamonaviy jamiyatdagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi.

Hazrati Bashir ziyoratgohi O'zbekistonning ko'p asrlik diniy-ma'naviy va madaniy tarixining ajralmas qismidir. Ziyoratgohning tarixi XIV–XV asrlarga borib taqaladi va u Amir Temur davridagi diniy-ma'rifiy harakatlar bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur davrda ilm va din uyg'unligi asosida ko'plab diniy ulamolar, so'fiylar va mutafakkirlar yetishib chiqqan. Hazrati Bashirning faoliyati ham ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida qaraladi. U o'z faoliyati davomida xalqni diniy ta'limotga chorlab, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilashga katta hissa qo'shgan. Hazrati Beshir – to'liq ismi Hazrati Sulton Said Ahmad Beshir (1368–1464) – Amir Temur davrida yashagan, diniy va ilmiy salohiyati bilan tanilgan ulug' zotlardan biridir. U xalq orasida Bashir yoxud Beshir ota nomlari bilan ataladi. Uning bu ismlar bilan atalishi haqida xalq orasida ko'plab rivoyatlar kezib yuradi. Bir rivoyatga ko'ra, u ona suti emmagan, shuning uchun unga “Beshir”, ya'ni sutsiz ma'nosidagi laqab berilgan. Bundan tashqari, o'zbek xalqi tarkibiga kiruvchi, kichik urug'lardan biri ham “bashir” deb ataladi. Said Ahmad Bashirning yana bir laqabi “Miri Haqiqat” bo'lib, bu laqab uning yassaviylik tariqatiga hammaslakkligining bir nishonasi hisoblanadi. Sababi u yoshligidan diniy ilmlarga mehr qo'yib, tasavvufga qiziqadi. O'sha davrlarda O'rta Osiyoda naqshbandiylik yoyila borishiga qaramay, Xoja Ahmad Yassaviy ta'limoti

asosida faoliyat yuritgan bu zot o'z davrida ma'rifat va ruhiy poklik targ'ibotchisi bo'lgan.

Hazrati Bashir ota qabri ustida barpo etilgan sag'ana bugungi kungacha saqlanib qolgan. Uning ustiga XVIII asrda shifti yassi toqiga ega bo'lgan masjid qurilgan va u soddaligi bilan ajralib turuvchi me'moriy obidadir. Ziyoratgohda Hazrati Bashirning ikki o'g'li va bir xizmatkori dafn etilgan. Bu joy qadimdan xalq orasida e'tiqod va hurmat maskani bo'lib kelgan. Mustaqillikdan so'ng, ziyoratgohni qayta ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Prezident farmonlari va mahalliy hokimlik qarorlariga muvofiq, Hazrati Beshir ziyoratgohi O'zbekistonning muhim turistik va diniy obidalaridan biri sifatida rivojlantirildi. Bu yerga har yili o'n minglab ziyoratchilar, ilmiy tadqiqotchilar va sayyohlar tashrif buyurishadi. Shu bilan birgalikda mahalliy aholi orasida ziyoratgohlarga borish mavsumi davrida yurtimizning turli tuman, shahar, qishloqlaridan turli yoshdagi ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Aksar holatlarda, ularning ziyoratlari faqatgina tomosha qilish emas, balki biror mushkul vaziyatga tushib qolgan, qandaydir muammolar sabab hayotida qiyinchilik va baxtsizliklarga uchragan insonlar ushbu ziyoratgohga dardlariga malham topish va izlash uchun ham tashrif buyurishadi. Albatta, Hazrati Bashir ziyoratgohi o'zining so'lim tabiati va toza havosi bilan muammolarni ma'lum muddatga bo'lsa ham, chetga surishga yordam beradi. Ziyoratgohning hozirgi kundagi holati ham ilmiy jihatdan qiziqarlidir. 2023-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, ziyoratgohga yil davomida 500 mingga yaqin ziyoratchi tashrif buyurgan. Bu esa uning diniy, ma'naviy va turistik ahamiyatidan dalolat beradi. O'zbekiston musulmonlari idorasi, Mahalla fondi va Turizm qo'mitasi hamkorligida bu maskanda muntazam ravishda konferensiyalar, diniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Hazrati Bashir haqida ilmiy maqolalar, risolalar va fotohujjatlar jamlanmasi chop etilgan bo'lib, ular yoshlar va tadqiqotchilar uchun muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Ziyoratgoh me'moriy jihatdan ham tarixiy yodgorlik sifatida e'tiborga loyiqdir. Maqbara XIX asrga oid bo'lib, mahalliy xalq me'morchiligi an'analari o'zida

mujassam etgan. Qabr usti marmar qoplamali bo'lib, ichki qismda Qur'on oyatlari bitilgan naqshlar mavjud. Bu naqshlar arab kalligrafiyasi san'ati namunasi hisoblanadi. Ziyoratgohda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida qadimiy sopol buyumlar, suyak va boshqa antropologik materiallar topilgan. Bu topilmalar fan uchun muhim bo'lib, u yerda qadimdan yashash manzillari va diniy faoliyat mavjud bo'lganini isbotlaydi. Hazrati Bashir ziyoratgohi faqatgina diniy maskan emas, balki tarixiy-arxeologik va ilmiy tadqiqotlar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. 2021-yilda Toshkent Islom Sivilizatsiyasi markazida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada bu ziyoratgoh faoliyati alohida muhokama qilinib, uning keyingi davrdagi faoliyati xususida yangi yo'nalishlar belgilab olingan. Bundan tashqari, ushbu ziyoratgoh bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida ma'naviy va ma'rifiy markaz sifatida muhim ahamiyatga ega ziyoratgohlar qatorida xalqimiz tomonidan qadrlanib kelinmoqda.

Xulosa

Hazrati Bashir ziyoratgohi – xalqimizning ko'p asrlik diniy-ma'naviy qadriyatlarining timsoli bo'lib, uning tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyati nihoyatda yuksakdir. Ziyoratgohning saqlanishi, rivojlanishi va yosh avlodga yetkazilishi bizning tarixiy xotiramizni asrash yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu maqolada ta'kidlanganidek, Hazrati Bashir ziyoratgohi diniy turizm, ma'naviy tarbiya va tarixiy merosni targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hazrati Bashir ziyoratgohi — Zarnews. <https://zarnews.uz>
2. Hazrati Bashir maqbarasi . — Vikipediya.
https://uz.wikipedia.org/wiki/Hazrati_Bashir_maqbarasi
3. Qashqadaryo viloyati turizm ma'lumotlari — qashqadaryo-turizm.uz
4. Islom Sivilizatsiyasi markazi materiallari — islom.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari — lex.uz